SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TOIFALASH ASOSIDA BOSHQARUV QARORLARINI DIFFERENSIALLASHTIRISH

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23770729

Annotatsiya: Tezisda Samarqand viloyatining respublika sanoati va innovatsion faoliyatidagi ulushi 2021-2025-yillar statistik ma'lumotlari asosida tahlil qilinib, sanoat ishlab chiqarish ko'lami bilan innovatsion faollik o'rtasidagi nomutanosiblik aniqlangan. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini innovatsion faollik koeffitsienti va innovatsion xarajat qaytimi juftligi asosida baholash hamda korxonalarni to'rt toifaga ajratish yondashuvi asoslanib, har bir toifa uchun innovatsion strategiya turi va ustuvor boshqaruv qarorlari taklif etilgan.

Annotation: The paper analyses the share of Samarkand region in the national industry and innovation activity on the basis of 2021–2025 statistical data and reveals an imbalance between the scale of industrial production and innovation activity. An approach to assessing the efficiency of innovation management in industrial enterprises on the basis of a pair of indicators – the innovation activity coefficient and the return on innovation expenditure – and to dividing enterprises into four categories is substantiated, and a type of innovation strategy and priority management decisions are proposed for each category.

Аннотация: В тезисе на основе статистических данных за 2021-2025 годы проанализирована доля Самаркандской области в промышленности и инновационной деятельности республики, выявлена несбалансированность масштабов промышленного производства и инновационной активности. Обоснован подход к оценке эффективности управления инновационной деятельностью промышленных предприятий на основе пары показателей – коэффициента инновационной активности и отдачи инновационных затрат – и разделению предприятий на четыре категории, для каждой из которых предложены тип инновационной стратегии и приоритетные управленческие решения.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, boshqarish samaradorligi, innovatsion faollik koeffitsienti, innovatsion xarajat qaytimi, toifalash, innovatsion strategiya, sanoat korxonasi.

Mamlakatimizda sanoatni innovatsion asosda rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun va 2022-2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasida korxonalarda innovatsiyalarni joriy etish, ularni moliyalashtirish va natijalarini tijoratlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. J.Shumpeter innovatsiyani ishlab chiqarish omillarining "yangi kombinatsiyasi" sifatida talqin etib, uning iqtisodiy mazmunini aynan natija – yangi mahsulot, yangi usul yoki yangi bozor bilan bog'lagan. Oslo qo'llanmasida ham innovatsiya korxona amaliyotiga joriy etilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot va jarayon sifatida belgilanadi. Demak, innovatsion faoliyatni baholashda sarflangan resurs hajmi bilan birga uning qanchalik iqtisodiy natijaga aylanganini ham hisobga olish lozim.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ILMIY TADQIQOTLAR VA JAMIYAT MUAMMOLARI
nomli ko'p tarmoqli masofaviy,onlayn respublika konferensiyasi

Sayt havolasi:https://e-conference.uz/index.php/itjm Oktabr,2026

Hududda innovatsion faoliyatning holatini baholash uchun avvalo viloyatning sanoat ishlab chiqarishidagi va innovatsion xarajatlardagi ulushini o'zaro qiyoslash zarur. Agar bu ikki ulush bir-biriga yaqin bo'lsa, hududdagi sanoat o'z ko'lamiga mos darajada innovatsiyalarga resurs yo'naltirayotgan bo'ladi. Samarqand viloyati bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Samarqand viloyatining respublika sanoati va innovatsion faoliyatidagi ulushi, 2021-2025-yillar

Ko'rsatkichlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.	2025-y. 2021-y.ga nisbatan, %
Sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari						
Respublika sanoat mahsuloti, mlrd. so'm	456 056,1	553 265,0	658 991,7	880 198,5	1101 130,0	241,4
Samarqand viloyati sanoat mahsuloti, mlrd. so'm	228 34,3	291 88,6	329 55,7	454 08,0	5776 7,5	253,0
Viloyatning sanoat mahsulotidagi ulushi, %	5,01	5,28	5,00	5,16	5,25	+0,24 p.p.
Innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari						
Respublika innovatsiyalarga xarajatlari, mlrd. so'm	176 80,8	191 30,6	106 16,5	973 9,3	1303 6,3	73,7
Samarqand viloyati innovatsion xarajatlari, mlrd. so'm	112, 5	168, 7	220, 3	102, 7	137,5	122,2
Viloyatning innovatsion xarajatlardagi ulushi, %	0,64	0,88	2,08	1,05	1,05	+0,41 p.p.
Ulushlar nisbati (sanoat : innovatsion xarajat), marta	7,9	6,0	2,4	4,9	5,0	-2,9 punkt

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1-jadval ma'lumotlari viloyat sanoati va innovatsion faoliyati turli sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2021–2025-yillarda viloyat sanoat mahsuloti 22834,3 mlrd. so'mdan 57767,5 mlrd. so'mga oshib, 2,53 baravar o'sgan va respublika sur'atidan (2,41 baravar) yuqori bo'lgan. Innovatsion xarajatlar esa 112,5 mlrd. so'mdan 137,5 mlrd. so'mga, ya'ni bor-yo'g'i 122,2 foizga ko'paygan, 2024-yilda esa oldingi yilga nisbatan ikki baravardan ko'proq qisqargan. Shu bois viloyat respublika sanoat mahsulotida barqaror 5 foiz atrofidagi ulushga ega bo'lgani holda, innovatsion xarajatlardagi ulushi 2025-yilda atigi 1,05 foizni tashkil etgan. Ulushlar nisbati 2023-yilda 2,4 martagacha qisqargan bo'lsada, keyingi ikki yilda yana 5,0 martaga kengaygan. Bundan tashqari, viloyatning respublika innovatsion mahsulotidagi ulushi 2021-yildagi 1,51 foizdan 2023-yilda 0,91 foizgacha pasaygan. Demak, viloyatda innovatsiyalarga yo'naltirilayotgan mablag' ham, uning natijasi ham sanoat ko'lamidan sezilarli darajada orqada qolmoqda.

Ushbu tafovutning miqyosini sanoat mahsulotining har 100 so'miga to'g'ri keladigan innovatsion xarajat ko'rsatkichi yaqqolroq ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkichning respublika va viloyat bo'yicha dinamikasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Sanoat mahsulotining 100 so'miga to'g'ri keladigan innovatsion xarajatlar, so'm

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotining 100 so'miga to'g'ri keladigan innovatsion xarajat respublika bo'yicha 2021-yildagi 3,877 so'mdan 2025-yilda 1,184 so'mga, ya'ni 3,3 baravar kamaygan. Samarqand viloyatida bu ko'rsatkich 2023-yilda 0,668 so'mgacha ko'tarilgan bo'lsada, 2025-yilda 0,238 so'mni tashkil etib, respublika darajasidan 5,0 baravar past bo'lib qolgan. Ishlab chiqarish hajmi tez o'sayotgan sharoitda innovatsion xarajatlarning nisbiy jihatdan kamayishi ishlab chiqarish asosan mavjud texnologiyalar hisobiga kengayayotganini bildiradi. Bunday holatda innovatsiyalarga ajratilayotgan cheklangan mablag'lardan qanchalik samarali foydalanilayotganini korxona darajasida baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi metodikalarda innovatsion xarajatlar, patentlar soni yoki yangi mahsulot ulushi odatda alohida ko'rsatkich sifatida olinadi va ular boshqarishning ichki mexanizmini aks ettirmaydi. Shu bois tadqiqotda boshqarish samaradorligini ikki mustaqil ko'rsatkich orqali baholash taklif etildi. Birinchisi – innovatsion faollik koeffitsienti (K_faol) bo'lib, u innovatsion xarajatlarning korxona jami xarajatlaridagi ulushini, ya'ni resurslarning innovatsiyaga safarbar etilish darajasini ifodalaydi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ikkinchisi – innovatsion xarajat qaytimi (K_qayt) bo‘lib, u innovatsion faoliyatga sarflangan har bir so‘m hisobiga olingan sof foydani ko‘rsatadi. Ko‘rsatkichlarni yagona indeksga birlashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki yig‘ma indeks yuqori faollik va past qaytim o‘rtasidagi nomutanosiblikni o‘rtacha qiymat ortida yashiradi. Ularni mustaqil o‘qlar sifatida qo‘llash esa o‘rtacha qiymatlarni chegara qilib, korxonalarni to‘rt toifaga ajratish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Innovatsion faollik va innovatsion xarajat qaytimi nisbati bo‘yicha sanoat korxonalarining toifalanishi

2-rasmda toifalar samaradorlik pasayib borishi tartibida joylashtirilgan. Samarali innovator toifasida resurslar iqtisodiy natijaga aylanmoqda, yashirin salohiyat toifasida esa boshqaruv mexanizmi ishlaydi, lekin moliyaviy ko‘lam cheklangan. Shuning uchun yashirin salohiyat samarasiz faollikdan yuqori qo‘yilgan: samarasiz faollik toifasida mablag‘ sarflanmoqda, ammo natija olinmayapti, ya’ni uzilish boshqaruv mexanizmining o‘zida yuz bermoqda. Innovatsion turg‘unlik toifasida esa ikkala ko‘rsatkich ham past bo‘lib, muammo tizimli xarakterga ega. Rasmdagi strelkalar korxonaning bir toifadan ikkinchisiga o‘tish yo‘nalishini ko‘rsatadi va har bir o‘tish ma’lum boshqaruv qarorini talab qiladi. Bunda samarasiz faollik toifasidagi korxonalarda xarajatlarni boshqaruv mexanizmini tuzatmasdan oshirish ularni samarali innovatorga aylantirmaydi.

Toifalash natijasi boshqaruv qarorlariga aylanishi uchun har bir toifaga mos strategiya turi va ustuvor chora-tadbirlarni belgilash zarur. Taklif etilayotgan yondashuv 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Sanoat korxonalarining toifalari bo‘yicha innovatsion strategiya va boshqaruv qarorlari

Toifa	Strategiya turi	Ustuvor boshqaruv qarori	Asosiy nazorat ko‘rsatkichi
I. Samarali innovator	Hujumkor	Erishilgan natijani yangi mahsulot va bozorlar hisobiga	Yangi mahsulot ulushi, eksport hajmi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

		miqyoslashtirish	
II. Yashirin salohiyat	Selektiv hujumkor	Samarasi isbotlangan yo'nalishlarga innovatsion xarajatlarni bosqichma-bosqich oshirish	Innovatsion faollik koeffitsienti
III. Samarasiz faollik	Mudofaa	Loyihalarni tanlash, joriy etish va tijoratlashtirish bo'g'inlarida boshqaruv mexanizmini qayta qurish	Innovatsion xarajat qaytimi
IV. Innovatsion turg'unlik	Imitatsion	Sinovdan o'tgan texnologiyalarni o'zlashtirish orqali innovatsion faoliyatni qayta tashkil etish	Joriy etilgan texnologiyalar soni

2-jadvaldan ko'rinadiki, har bir toifa uchun boshqaruv qarori korxonaning eng zaif bo'g'iniga yo'naltiriladi va uning natijasi alohida nazorat ko'rsatkichi orqali kuzatiladi. Samarali innovator toifasidagi korxonalarda asosiy vazifa erishilgan natijani saqlab qolish va uni kengaytirish bo'lsa, yashirin salohiyat toifasida innovatsion faollikni oshirish, samarasiz faollik toifasida esa xarajat qaytimini oshirish birinchi o'ringa chiqadi. Samarasiz faollik toifasida xarajatlarni yana ko'paytirish emas, innovatsion xarajatning natijaga aylanish zanjiridagi uzilish qayerda yuz berayotganini aniqlash talab etiladi. Innovatsion faoliyatda natijaga erishish ehtimoli tadqiqot bosqichiga qarab keskin farq qilishini hisobga olsa, bir yillik ma'lumotlar korxonani noto'g'ri toifaga kiritishi mumkin. Shuning uchun diagnostika kamida uch yillik o'rtacha qiymatlar asosida o'tkazilishi va natijalar har yili qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishi respublika sur'atidan tezroq o'sayotgani holda innovatsion xarajatlar va innovatsion mahsulotdagi ulush sanoat ko'lamidan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Bunday sharoitda innovatsiyalarga yo'naltirilayotgan cheklangan mablag'lardan samarali foydalanish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini innovatsion faollik koeffitsienti va innovatsion xarajat qaytimi juftligi bo'yicha baholash resurslar va natijalar o'rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash, korxonalarni to'rt toifaga ajratish va har bir toifa uchun differensiallashgan strategiya tanlash imkonini beradi. Ushbu yondashuvni hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarida qo'llash innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mablag'larini natija beradigan korxonalarga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O'RQ-630-son "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.07.2020-y., 03/20/630/1102.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

4. OECD/Eurostat. Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation. 4th ed. – Paris: OECD Publishing; Luxembourg: Eurostat, 2018. – 256 p.
5. Трачук А.В., Линдер Н.В. Инновационная деятельность промышленных компаний: измерение и оценка эффективности // Стратегические решения и риск-менеджмент. – 2019. – Т. 10, № 2. – С. 108–121.
6. Умаров А.А. Риски в инновационной деятельности // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2014. – № 2.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti. – https://stat.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.